

### **Список литературы:**

1. Авдийский В.И., Дадалко А.В., Безденежных В.М. Проектирование систем управления рисками хозяйствующих субъектов. Учебное пособие. М.: Инфра, 2019. С. 45-55.
2. Глухова Т.С. Корпоративный секретарь страховой компании. // Кадровик. - 2008. - No11.- 0,6 п.л.
3. Глухова Т.С., Шарипов Ф.Ф. Процедуры эффективного функционирования совета директоров в страховых компаниях. // Вестник Университета (Государственный университет управления). Серия «Национальная и мировая экономика». – М.: ГУУ, 2008. - No2(8). - 0,38 п.л. (0,19 п.л.).
4. Концепция COSO «Интегрированная концепция построения системы внутреннего контроля» // COSO [Электронный ресурс] URL: <https://www.coso.org/Documents/990025P-Executive-Summary-final-may20.pdf>
5. Ружанская Л.С. Общий менеджмент. Екатеринбург: Уральский федеральный университет, 2017. С. 74-78.
6. Цыганов А.А., Глухова Т.С. Права акционеров в практике корпоративного управления в страховых компаниях. // Страховое дело. - 2009. - No3.- 0,39 п.л. (0,19 п.л.).
7. Земсков В.В. Внутренний контроль и аудит в системе экономической безопасности хозяйствующего субъекта. М.: Прометей, 2019. С. 45-69.

## **MOLIYA BOZORINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**Sultonov Sherali Nuralievich,**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsenti*

**Annotatsiya.** *Mazkur tezisda moliya bozorining tarkibiy qismi sifatida fond bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan. Fond bozorining kapital harakatchanligini ta'minlash, aholi jamg'armalarini investitsiyalarga yo'naltirish va moliyaviy instrumentlar likvidligini oshirish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish zarurligi asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Moliya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, kapitalizatsiya, yalpi ichki mahsulot, investitsiya, modernizatsiya, moliyaviy globallashuv, xalqaro integratsiya, kredit reytingi, obligatsiya, dividend siyosati, moliyaviy instrumentlar, likvidlilik, kapital harakatchanligi, iqtisodiy o'sish.*

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning yuqoriligi bilan bog'liq eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan, (aksiyadorlik jamiyat (AJ)larida yuqori dividend siyosati, birja savdo tizimlarining takomillashganligi) moliya bozorining yuqori darajada rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) kapitalizatsiyasining yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmiga nisbatan ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda moliya bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish moliya bozorida yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini investitsiyalarga yo'naltirish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transformatsiyalanishiga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida

1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi<sup>31</sup>.

Jahon mamlakatlarida moliya bozorlari turli darajada rivojlangan bo'lib, makroiqtisodiy rejalar ishlab chiqish va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, jumladan, xorijiy kapital oqimlari va aholi jamg'arma mablag'larini fond bozori orqali jalb qilishda muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy globallasuv sharoitida moliya bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarning yechimiga erishish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida fond bozorining milliy va xalqaro tizimlarini rivojlantirishga urg'u berilmoqda hamda uzluksiz ravishda takomillashtirilmoqda. Jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda «qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasi so'nggi yillarda YaIM hajmiga nisbatan 100-200 foizni tashkil etgan holda, 2020 yildan keyin esa 300 foizgacha yetishi bashorat qilinmoqda»<sup>32</sup>. Ammo, yirik kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushining yuqoriligi, moliya bozori orqali investitsiya jalb etishni takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar likvidligini oshirish, jahon kapital bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali moliyaviy resurslar jalb qilishni kengaytirish, moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Moliya iqtisodiyotning monetizatsiyalashgan alohida shakli sifatida moliyaviy vositalar asosida amalga oshiriluvchi moliyaviy munosabatlar jarayoni ko'rinishida namoyon bo'luvchi toifasi (kategoriyasi). Moliyaning bajaradigan funksiyasi nuqtai nazaridan moliya tizimining vazifasi bozor iqtisodiyotidagi transaksiyalarga hizmat ko'rsatish, jamg'armalarni jamlash va taqsimlashdir.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallasib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari na faqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki global iqtisodiyot rivojini ham belgilamoqda.

Moliya bozori yordamida kapitalning (sanoat korxonolari va bank kapitali) harakatchanligi oshiriladi, mablag'larni jumladan, uy xo'jaliklarining shaxsiy jamg'armalarini investitsiya uchun tezlik bilan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga jalb etish imkonini beradi. Fikrimizcha, moliya bozorida moliyaviy instrumentlarning muntazam aylanishi - mamlakat moliya tizimini tubdan modernizatsiya qilishni rag'batlantiradi. Chunki, moliyaviy instrumentlar moliya bozorining iqtisodiy faollik indikatorini hisoblanib, ishlab chiqarish korxonolari, xizmat ko'rsatuvchilar, tijorat banklari, fond birjalari, investitsiya fondlari va aholi o'rtasida kapitalning samarali xarakatini ta'minlaydi.

Davlat va xo'jalik birlashmalari ulushi mavjud bo'lgan Ajlari aksiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif (IPO va SPO) asosida sotish lozim. Buning natijasida moliya bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqeini hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

---

<sup>31</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2020 yil 24 yanvar.

<sup>32</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп қўлланма. – Т.: «Маънавият», 2018. 189-б.

O'zbekistonda fond bozori yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini investitsiyalarga yo'naltiradi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transfarmasiyalanishiga imkoniyat yaratadi.

Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Moliya bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

## **MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI**

**Mirzayev Shoxrux**

*Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish Markazi*

**Annotatsiya.** *Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mega investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar hamda ularni moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, yirik kapital sig'imli sanoat loyihalarini moliyalashtirish manbalari, moliyaviy risklar va ularni boshqarish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kapital bozorini rivojlantirish, infratuzilmaviy obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya instrumentlaridan foydalanish istiqbollari yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *mega investitsiya loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, kapital bozori, ESG moliyalashtirish.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan "O'zbekiston - 2030" strategiyasini zamonaviy global tendensiyalar, iqtisodiy transformatsiya jarayonlari hamda yangi geoiqtisodiy chaqiriqlarga mos ravishda takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Mazkur strategiya doirasida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, sanoatni chuqur modernizatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Shu bilan birga, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Strategiya doirasida qator muhim maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, jumladan:

- sanoatda texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2023 yilga nisbatan 2,5 baravarga oshirish;
- oltin ishlab chiqarishni 2024 yilga nisbatan 1,5 baravarga oshirish;
- mis ishlab chiqarishni 3,5 baravarga, shu jumladan mis katodi ishlab chiqarishni 2 baravarga oshirish;